

## TARJIMA JARAYONIDA TARJIMONNING MAHORATI

*Zokirjonova Odinoxon Salim qizi*

*Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston*

*Milliy Universiteti Xorijiy filologiya fakulteti 3-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tarjima jarayonida tarjimonning mahorati ya'ni asliyatdan boshqa bir tilga tarjima qilishdagi yutuqlari xato va kamchiliklari haqida bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** tarjimonlik, lug'at tuzish, tarjimadagi muammolar, realiyalar, badiiy ijodkorlik.

## НАВЫКИ ПЕРЕВОДЧИКА В ПРОЦЕССЕ ПЕРЕВОДА

**Аннотация:** В данной статье описаны ошибки и недостатки навыков переводчика в процессе перевода, то есть его достижения в переводе с оригинала на другой язык.

**Ключевые слова:** перевод, словарный запас, проблемы перевода, реалии, художественное творчество.

## TRANSLATOR'S SKILLS IN THE TRANSLATING PROCESS

**Annotation:** This article describes translator's proficiency, that is his achievements, mistakes and shortcomings in translating from original to the other language.

**Key words:** translating, vocabulary building, problems in translation, realities, artistic creativity.

## KIRISH

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlari tarixi va madaniyatida shakllanib kelayotgan qadimiy faoliyat sohalaridan biridir. Bu ajoyib, shu bilan birga murakkab va sirli jarayonga juda ko'plab ta'riflar berilgan. Masalan, XX asr Yevropaning eng yirik adiblaridan biri, asarlari ko'p dunyo tillariga o'girilgan va o'zi ham tarjimalar qilgan va hatta tarjima nima ekanligini tushuntirib, o'z ijodiy laboratoriyasi tajribalaridan ibratli misollar keltirgan Umberto Eko "Aynan aytish. Tarjima haqida tajribalar" nomli kitobida hali hamon gapni tarjima nima? degan savoldan boshlaydi. Tarjimaning nima ekanligini o'z amaliyotida juda yaxshi bilgan Umberto Eko: - Birinchi qoniqarli javob shunday bo'lishi mumkin: aynan shu narsaning o'zini boshqa tilda aytib berish bu- tarjima". Bu tarjimaning juda sodda va

shu bilan birga eng to'g'ri ta'rifi. Ammo bu sodda ta'rif bari bir tarjimaning juda sirli va murakkab soha ekanligini inkor etolmaydi. Hatto juda buyuk adabiy tajribaga ega mashhur adibning shunday ta'rif berishi ham tarjima shunday soha ekanligini ko'rsatib turadi.

Asliyatdagi matnni boshqa bir tilga tarjima qilishda tarjimon mahoratining ahamiyati katta. Ikki til xususiyatlarini bilish zamirida asarni har tomonlama o'rganish, uni lug'ati va realiyalari ustida ishlash tarjimon uchun juda muhim. Bu uni ma'lum darajada olim va tadqiqotchi bo'lishini ham taqazo etadi.

### **TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI**

Tarjima qilinadigan muallif va uning asari bilan tarjimon o'rtasida til topishish bo'lishi zarur til topish deganda muallifning o'ziga xosliklarini va muayyan asarning badiiy xususiyatlarini teran anglash va shunga yarasha jarayonni tashkil etishni tushunamiz. Tarjima qilinadigan asar va uning muallifini sevgandagina yaxshi tarjimaga erishish mumkin. Bularning barchasi tarjimonning mahoratiga bog'liq. Tarjimaga tayyorgarlik bu- katta jarayon.

Albatta matnni tarjima qilayotganimizda turli xil muammolarga duch kelamiz. Chunki har bir xalqning o'z tili o'zgacha bo'lganidek madaniyati ham bir-biridan farq qiladi. Bu jarayonda tarjimondan katta mahorat talab etiladi. Ya'ni, tarjimon nafaqat tilni balki bu xalq madaniyatini, urf-odatlarini ham yaxshi bilishi kerak bo'ladi. Shunda u tarjima qilgan asarda o'sha xalqning nafasi urib turadi. Kitobxon ham buni his etadi va o'rganadi.

Tarjimada so'z ma'nolarini taxminiy tarjima qilishga yo'l qo'yilmaydi. So'z va uning ma'nolarini tarjimon yaxshi bilishi yoki ularni lug'atdan topishi lozim. Asliyatdagi so'zga qisman to'g'ri keladigan ekvivalentni topish ko'pincha tarjima qilishda muammo yaratadi. Bunday so'zlar odatda polisemantik, ya'ni ko'p ma'noli hisoblanadi. So'z ma'nosining qaysi biri qo'llanganini aniqlash tarjimonning birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Rus tarjimoni Nikolay Lyubimov asarni boshqa tilda qayta bunyod etar ekan, o'z yelkasiga go'ya adibning mas'uliyatini oladi, uning boshqa til muhitidagi elchisi, vakiliga aylanadi. Asarni asliyatda o'qiganlar uni qanday qabul qilgan bo'lsalar, tarjimada ham o'qiganlar ham shunday qabul qilarmikan? Yoki tarjimada asarning mohiyati yo'qolib, o'quvchilar undan ta'sirlanishdan mahrum bo'larmikan? degan savollarni o'z oldiga qo'yadi. Tarjimonning mahorati anashunda yuzaga keladi. Abdulla Qahhor Lev Tolstoyning "Urush va tinchlik" romanining tarjimasiga kirishishdan oldin Rossiyada bo'lib, asarda tasvirlangan voqealar kechgan joylar va qahramonlar yashagan muhitni eslatadigan holatlar bilan tanishgan. Tolstoyni

ilhomlantirgan, hayotga chuqur nigoh solgan bu ilhomning manbalarini tarjimon adib o'z ko'nglidan o'tkazgan edi. U o'z oldiga Lev Tolstoy "Urush va tinchlik"ni XX asr o'zbek tilida qanday yozardi? - degan savolni qo'ygan. Shuning uchun Tolstoy tasvirlagan rus hayoti, odamlarining ichki va tashqi dunyosini, go'zalliklarni o'zbek tili vositalari orqali badiiy gavdalandirib beraolgan edi.

### **MUHOKAMA**

Tarjimon xuddi yozuvchi kabi narsa-hodisalar, inson ruhiyati to'g'risida keng tasavvurlar va fantaziya qobiliyatiga ega bo'lgandagina, uning ijodi ishonchli, tushunarli, badiiy ijodkorlik va ta'sirchanlik kasb etadi. Tarjimaga kirishmasdan oldin tarjima qilinadigan asarni har tomonlama o'rganish, badiiy xususiyatlari ustida oldindan ish olib borish lozim. Bu ma'lumotlar tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishiga zamin yaratadi. Yozuvchi yangi asar yozish uchun qanday material yig'sa, tarjimon ham shunday material to'playdi. Asar va uning muallifi haqida o'z ma'lumotnoma daftarini yaratadi.

### **XULOSA**

Hozirgi rivojlanib borayotgan davrda shunday tarjimonlar juda zarur. Har kuni dunyo bo'ylab o'nlab yuzlab asarlar chop etilmoqda. Ularni tarjima qilish xalqqa va o'sin kelayotgan yosh avlodlarga yetkazib berish lozim. Bunda albatta tarjimonlarning ahamiyati katta. Bu borada yurtimizda ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Mustaqillikka erishmasimizdan oldin ham ko'pgina tarjimonlarimiz dunyoga mashhur yozuvchilar asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilishgan. Poytaxt va viloyatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan hamkorlikda "Yosh tarjimonlar maktabi" tashkil etilganligi ham tarjimaga bo'lgan e'tiborning isbotidir.

### **REFERENCES**

1. G'. Salomov. "Tarjima nazariyasi va asoslari". Toshkent "O'qituvchi", 1983.
2. I. G'ofurov, O. Mo'minov, N. Qambarov. "Tarjima nazariyasi". Toshkent „Tafakkur Bo'stoni“, 2012.
3. J. Sharipov. "Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar". Toshkent 1977.